ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 1,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

MAMMADOVA SHAKAR,
XAMIDOV MANSUR
Ozarbayjon va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili 7

YAKUBOVA NILUFAR EGAMBERGANOVNA
O‘zak va qolip (vazn) nazariyasi arabiy o‘zlashmalarni
tahlil qilishning asosiy mezoni sifatida 12

SAMANDAROV RUSTAM DO‘SYOROVICH
Tilshunoslik fani taraqqiyotida applikativ modelning murakkab
sintaktik qurilmalar shakllanishidagi o‘rni 17

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Арабская лингвистическая традиция VII–XVII вв.: формирование
интеллектуального стиля и инструментов сохранения языковой нормы 21

ALIMOVA ZARIFAXON VAXOBOVNA
MAMAROZIQOVA SUG‘DIYONA SHUXRATJON QIZI
Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostonida forsiy o‘rin-joy yasovchi affikslarining qo‘llanilishi 25

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA,
YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA
Mahmud Koshg‘ariyning «Devony lug‘oti-t-turk» asarida keltirilgan
maqollardagi so‘zlarning semantik-stilistik xususiyatlari 29

SADULLAYEVA MATLYUBA AXROROVNA
Ahmad Yassaviy ijodining ramziy tili va undagi raqamli tasavvuf 33

SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
Arab tilida enantiosemiya hodisasi: semantik tabiati va ilmiy talqinlar tahlili 36

PANJIEVA NASIBA NARMAXMATOVNA
SAIBNAZAROVA NAZOKAT
English proverbs with number components 39

ЛАТИПОВ АЗИЗ АКБАРАЛИЕВИЧ
Сопоставительная характеристика категории
фазовости в английском и узбекском языкознании 42

AMONOV MUXTORJON UMAROVICH
«Boburnoma» asaridagi arabcha o‘zlashmalarda antonimlik 45

ОРИФЗОДА МАДИНА КАМИЛОВНА,
ОРИФЗОДА БОНУ КАМИЛОВНА
Системное изучение словообразовательной омонимии
в ретроспективном и перспективном аспектах 48

SABIROV ASROR ABDULLAYEVICH
Nemis–o‘zbek siyosiy terminlarining semantik va stilistik xususiyatlari 52

IBRAXIMOVA IRODA BOBIR QIZI
O‘zbekistonda til siyosati va ingliz tilining rivoji 56

TURSUNOVA MARXABO RAXMONOVNA
Jojo Moyesning «To seni topgunimcha» romanida kognitiv dissonans fenomenining
psixologik va lingvistik talqini hamda uning tarjimashunoslikdagi ifodasi 60

ARZIMURODOVA E’ZOZA BERDIMUROD QIZI
Zamonaviy mobil aloqa terminlarida transliteratsiya strategiyalari: ingliz va o‘zbek tillari qiyosida 64

BOZOROVA SEVARA KAMOL QIZI
Savdo konsepti doirasida sinonimiya (o‘zbek va ingliz tillari misolida) 68

КАРИМОВА ГУЗАЛ ИХТИЯРОВНА
Лингвокультурологический аспект концепта и его изучение в разных языках 71

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
O‘tkir Rahmat she’riyatida sinonim so‘zlarning qo‘llanishi haqida ayrim mulohazalar 76

МУНДАРИЖА

MUSTAFOEVA MAKSAD ASKAROVNA
The structural and linguistic analysis of anthroponyms in «Beowuf» and «Alpomish» folk epics 79

NOSIROVA DILNOZA RIZOKULOVNA
Semantic and pragmatic features of john green's novels in contemporary young adult literature 82

RAXIMOVA ZARINA UKTAMOVNA
O'smirlar psixologiyasining lingvopoetik ifodasi va tarjimada ichki monolog hamda emotsional tasvir 87

RAXMATOVA GULNOZA ISOXONOVNA
O'zbek tilidagi so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalarining ingliz tilidagisi bilan qiyosi 90

BERDIYEVA SITORA UTKEROVNA
G'afur G'ulomning «Shum bola» asarida yumorning badiiy funksiyalarining lingvistik jihatlari 93

SHAMSITDINOVA MOXINABONU AKBAR QIZI
Yapon tilida omonimlardan foydalanishda nutqiy strategiyalar 98

ADABIYOTSHUNOSLIK

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Телба образининг бадиий талқини
(Эркин Аъзамнинг «Сув ёқалаб» ва «Танҳо қайиқ» киноқиссалари мисолида) 100

ASQAROVA ZULAYXO YANGIBOYEVNA
Muhammad Rizo Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asaridagi ta'rixlarning badiiy-estetik qimmati 104

MAMADJONOVA SEVARA MAXAMADJON QIZI
Adabiyotshunoslikda dualizm tushunchasining nazariy va
metodologik asoslari (Agata Kristi poetikasi misolida) 109

RAHIMOVA SARVINOZ TOLIBOVNA
Usmon Azimning «Devorlari yiqilgan bog'» hamda «Yana sevgi haqida she'rlar»
asarlaridagi simulyakra va boshqa postmodern xususiyatlar ifodasi 112

СААКЯН РОЗА ЮРЬЕВНА
Поэтика полемического жанра в памфлетной публицистике
Даниэля Дефо и Жжонатана Свифта 115

SHAMSIYEVA SHOXISTAXON QUDRATULLAYEVNA
Gender rollarni aks ettiruvchi stereotiplar 119

НАСРИДИНОВА СИТОРА УТКИРОВНА
Мотив отсутствия и присутствия как средство создания
напряжения в рассказе Джека Ритчи «Отсутствие эмили» 125

BAFOYEVA ROXILA VALIJON QIZI
Amerika hamda o'zbek postmodern adabiyoti xususiyatlari 128

KHAKIMOVA NARGIZA KHAYRILLOYEVNA
Mythological origins of the epics "Arthuriana" and "Alpamysh" 131

TA'LIM

TILOVOVA GO'ZAL RUSTAMOVNA
Ta'lim jarayonida o'quv izohli lug'atlardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati 135

YULDASHEVA DILAFRUZ
The role of teacher instruction in efl classrooms: a discourse-oriented analysis
of their importance in teaching young learners 138

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZAK VA QOLIP (VAZN) NAZARIYASI ARABIY O‘ZLASHMALARNI TAHLIL QILISHNING ASOSIY MEZONI SIFATIDA

Yakubova Nilufar Egamberganovna,
Urganch davlat pedagogika instituti,
o‘zbek tili va adababiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi

Eski o‘zbek tili lug‘at boyligida arabiy leksemalarni o‘zqatlam so‘zlardan ajratib olish muayyan lingvistik mezonlarga asoslanadi. Arab tilining introflektiv (ichki fleksiyaga asoslangan) tabiati turkiy tilning agglyutinativ qurilishidan keskin farq qilgani bois, arabiy o‘zlashmalar o‘zlarining shakliy, fonetik va derivatsion (so‘z yasalish) xususiyatlarini ma'lum darajada saqlab qoladi.

Taqdim etilgan lug‘at materiali asosida arabiy o‘zlashmalarni farqlashning quyidagi ilmiy tamoyillarini ishlab chiqish mumkin:

I. Fonetik-grafik identifikatsiya tamoyili. Arabiy o‘zlashmalarni eng dastlabki farqlash usuli bu turkiy til tabiatiga yot bo‘lgan yoki faqat arab tili orqali kirib kelgan tovushlar (va ularning grafik ifodasi) ishtirokiga qarashdir. Jumladan, *ayn (ʻ) tovushining mavjudligi*. Turkiy va forsiy so‘zlarda bu tovush umuman uchramaydi. Tilimizdagi *a'zo, a'mol, ba'zan, ba'd, da'vo, iste'dod, ma'no, ma'lum, taajjub, e'tibor* kabi so‘zlarning barchasi istisnosiz arabizmlardir. Ushbu fonetik-grafik hodisani tarixiy lingvistika va fonologiya nuqtayi nazaridan chuqurroq tahlil qilish maqsadga muvofiq. Arab tili fonologiyasida «ayn» (ع) tovushi o‘ziga xos chuqur bo‘g‘iz (faringal), jarangli sirg‘aluvchi undosh hisoblanadi[1]. Faqat somiy tillar tabiatigagina xos bo‘lgan bu tovush turkiy va hind-yevropa (fors) tovushlar tizimida mutlaqo mavjud emas. Shu sababli, arabcha so‘zlar turkiy tilga, xususan, eski o‘zbek tiliga o‘zlashganda, «ayn» undoshi o‘zining asl artikulyatsion xususiyatini yo‘qotib, jiddiy fonetik transformatsiyaga (assimilyatsiya, eliziya va kompensatsiya hodisalariga) uchragan. A.Rustamov va boshqa turkiyshunoslar ta'kidlaganidek, eski o‘zbek (chig‘atoy) tilida arabcha «ayn» undoshining talaffuzi aksariyat hollarda hiqildoq portlovchi tovushi hamza (ء) bilan qorishib ketgan yoki umuman tushib qolgan[2]. O‘zbek tilshunosligida, xususan, M.Mirtojiyev va H.Ne'matovlarning tadqiqotlarida «ayn»li so‘zlarning fonetik o‘zlashishi ularning so‘z tarkibidagi o‘rniga (pozitsiyasiga) ko‘ra quyidagicha farqlanishi ilmiy asoslangan[3]:

Arabcha so‘z boshida kelgan «ayn» turkiy talaffuzda mutlaqo tushib qoladi va o‘zidan keyingi unliga singib ketadi. Natijada so‘z unli tovush bilan boshlanadi. Masalan: عَالِم (*ʻalim* → olim), عَمَل (*ʻamal* → amal), عِلْم (*ʻilm* → ilm).

Umumiy tilshunoslikda ikki turli genetik manbaga ega bo‘lgan so‘zlarning qabul qiluvchi til fonetik qonuniyatlari ta'sirida yagona tovush qobig‘iga kirib qolishi konvergent omonimiya (etimologik shakldoshlik) deb ataladi[4]. Eski o‘zbek tili va hozirgi adabiy tilimiz lug‘atida *amal* so‘zi ana shunday mustaqil omoleksema sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning arabcha asl (etimon) shakllari va semantik maydoni quyidagicha:

Amal I (أَمَلٌ): Arabcha *a-m-l* (أ م ل) o‘zagidan yasalgan bo‘lib, so‘z boshida hamza (alif) qatnashgan. Lug‘aviy ma'nosi: *umid, orzu, kutish.* Mumtoz matnlarda bu so‘z ko‘pincha *kozib* (yolg‘onchi) so‘zi bilan birikib, *aldamchi umid* (أمل كاذب) kabi birikmalar tarkibida insonning ruhiy-psixologik holatini ifodalagan.

Amal II (عَمَلٌ): Arabcha *ʻ-m-l* (ع م ل) o‘zagidan olingan bo‘lib, so‘z boshida faringal «ayn» tovushi ishtirok etgan. Asosiy semalari: *ish, mehnat, harakat, amaliyot*. Keyinchalik ma'no taraqqiyoti (ma'no kengayishi) natijasida turkiy muhitda bu so‘z *mansab,*

[1] Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. – М.: Восточная литература, 2001. – С. 27-29.

[2] Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 18-20.

[3] Неъматов Н. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 84-86; Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 112-115.

[4] Ullmann, Stephen. The Principles of Semantics. – Oxford: Basil Blackwell, 1957. – P. 132-135.

vazifa, boshqaruv tushunchalarini ham ifodalay boshlagan[1].

Garchi bu ikki so‘z arab yozuvida farqli shaklda (أمل va عمل) yozilgan bo‘lsa-da, turkiy talaffuzda har ikki bo‘g‘iz tovushi (ayn va hamza) tushib qolib, so‘z «a» unlisi bilan boshlangan va ular bir xil tovush kompleksiga (*a-m-a-l*) ega bo‘lib qolgan. Y.D.Polivanov va boshqa turkiyshunoslar bu jarayonni turkiy til artikulyatsion bazasining begona tovushlarni assimilyatsiya qilish (moslashtirish) xususiyati bilan izohlaydilar[2].

Xuddi shunday fonetik-semantik konvergensiya hodisasi *alam* leksemasi misolida ham kuzatiladi. Bu so‘z eski o‘zbek she’riyatida bir-biriga umuman aloqador bo‘lmagan ikki xil ma’no maydonida faol qo‘llanilgan:

Alam I (أَلَمٌ): Arabcha *a-l-m* (أ ل م) o‘zagidan olingan, hamza bilan boshlanuvchi so‘z. Ma’nosi: *dard, og‘riq, qayg‘u, sitam, azob*. Bu so‘z eski o‘zbek lirikasidagi eng faol psixologik-emotsional tushunchalardan biridir.

Alam II (عَلَمٌ): Arabcha *‘-l-m* (ع ل م – ilm, bilim, belgi tushunchalari bilan o‘zakdosh) o‘zagidan yasalgan bo‘lib, «ayn» bilan boshlanadi. Asl ma’nosi: *belgi, nishona, tug‘, bayroq, yo‘l ko‘rsatuvchi tog‘ yoki ustun*. Mumtoz adabiyotda u ko‘pincha lashkarning bayrog‘i yoki ma’shuqaning tik qaddi-qomatiga nisbatan (qaddi alam – bayroqdek tik sarvqomat) majoziy ma’noda, shuningdek, *alamdor* (bayroqdor) shaklida ishlatilgan[3].

Qabul qiluvchi (resipient) tilning fonetik qonuniyatlari – xususan, somiy tillarga xos bo‘lgan faringal tovushlarning turkiy talaffuzda yo‘qolishi – o‘zlashma qatlamda radikal fonetik o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Natijada arab tili sohibi uchun mutlaqo begona va o‘xshash bo‘lmagan so‘zlar (أمل va ألم ; علم va عمل) eski o‘zbek tili egasi ongida deetimologizatsiyaga uchrab, yagona leksik birlik – absolyut omonimlar sifatida leksikalizatsiyalashdi.

Bu hodisa mumtoz adiblarimizga she’riy san’atning nodir namunalarini yaratishda beqiyos imkoniyat yaratgan. Navoiy, Bobur, Ogahiy kabi so‘z san’atkorlari grafik jihatdan turlicha yoziladigan, ammo talaffuzi bir xil bo‘lgan bunday so‘zlardan *tajnis* (so‘z o‘yini) va *iyhom* (ikki ma’nolilik) san’atlarini yaratishda keng foydalanganlar[4]. Bu esa arabiy o‘zlashmalarning eski o‘zbek tilida shunchaki passiv lug‘aviy birlik bo‘lib qolmay, balki tilning ichki poetik tizimiga singib, yuksak badiiy-estetik vosita darajasiga ko‘tarilganini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

II. Morfologik qolip (vazn) tamoyili. Arab tilidagi so‘z yasalish tizimi va vaznlarni o‘rganish faqatgina arab yozuvini biladigan mutaxassislar doirasi bilan cheklanib qolmaydi. Zamonaviy struktural tilshunoslik bu introflektiv jarayonni matematik aniqlikdagi universal qoliplarga solish imkonini beradi. Ushbu qoliplarni ilmiy-pedagogik amaliyotda C (inglizcha *consonant* – undosh) simvoli orqali modellashtirish mumkin.

Arab tilidagi o‘zaklar asosan uch undoshdan iborat bo‘lgani uchun, ularning leksik yadrosi va formulasi orqali ifodalanadi. Bunda C_1 o‘zakning birinchi undoshi (arab grammatikasida *faul-kalima*); C_2 o‘zakning ikkinchi undoshi (*ayn-ul-kalima*); C_3 o‘zakning uchinchi undoshi (*lom-ul-kalima*)ni anglatadi.

Bu usulning ilmiy va amaliy (didaktik) mohiyati shundaki, u arab alifbosidan mutlaqo bexabar bo‘lgan tadqiqotchi yoki talabaga ham lotin yoki kirill yozuvidagi matn ichidan arabiy o‘zlashmalarni matematik aniqlik bilan topish, tasniflash va o‘zagini ajratib olish imkonini beradi. Bu jarayon quyidagicha amalga oshadi (misol tariqasida):

Maf’al vaznining algebraik modeli: $maC_1C_2aC_3$. Talabaga so‘zning boshidagi *ma-* va o‘rtasidagi *-a-* tovushlari grammatik qo‘shimcha (vaznning o‘zgarmas qismi) ekanligi tushuntiriladi. Qolgan undoshlar esa o‘zak (C_1, C_2, C_3) hisoblanadi. Misol *maktab*. Formulaga solamiz: $ma + k(C_1) + t(C_2) + a + b(C_3)$. Demak, o‘zak undoshlari: *k-t-b*. Semantikasi: *yozuv, yozmoq* bilan bog‘liq. Yana bir misol: *manzar*. Formulaga solamiz: $ma + n(C_1) + z(C_2) + a + r(C_3)$. Demak, o‘zak undoshlari: *n-z-r*. Semantikasi: *qarash, nazar solish* bilan bog‘liq joy (manzara).

Maf’il vaznining algebraik modeli: $maC_1C_2iC_3$. Bu o‘rinda ikkinchi va uchinchi o‘zak undoshlari orasidagi unli «i»ga o‘zgaradi, qolgan struktura saqlanib qoladi. Misol: *majlis*. Formulaga solamiz: $ma + j(C_1) + l(C_2) + i + s(C_3)$. Demak, o‘zak undoshlari: *j-l-s*. Semantikasi: *o‘tirish* (o‘tiriladigan joy). Yana bir misol: *manzil*. Formulaga solamiz: $ma + n(C_1) + z(C_2) + i + l(C_3)$. Demak, o‘zak undoshlari: *n-z-l*. Semantikasi: *nozil bo‘lish, tushish* (to‘xtab o‘tiladigan joy).

Ushbu C_1, C_2, C_3 (CVC) modellashtirish usulini qo‘llash orqali mutaxassis arabiy o‘zlashmalar tizimida quyidagi ilmiy yechimlarga ega bo‘ladi:

So‘zni identifikatsiya qilish, ya’ni o‘zbek tilidagi biror so‘z $maC_1C_2aC_3$ yoki $maC_1C_2iC_3$ qolipiga aniq tushsa, bu so‘zning arabcha ismi makon (o‘rin-joy oti) ekanligiga shubha qolmaydi (masalan, *mashriq, mag‘rib, mahkama, maqbara*).

[1] Белкин В.М. Арабская лексикология. – М.: Изд-во МГУ, 1975. – С. 84-86.
[2] Поливанов Е.Д. Статьи по общему языкознанию. – М.: Наука, 1968. – С. 145-148.
[3] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б. 19.
[4] Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 64-67.

Paradigmani tiklash, ya'ni topilgan o'zak (C_1, C_2, C_3) orqali tilimizdagi boshqa so'zlarning ham qarindoshligini osongina isbotlash mumkin. Masalan, talaba *j-l-s* o'zagini topgach, avtomatik ravishda $C_1aC_2iS_3$ (*jalis* – hamsuhbat) yoki $C_1uS_2uC_3$ (*julus* – taxtga o'tirish) so'zlarini ham yagona etimologik uyaga jamlay oladi.

Mufa"il, mufa"al va boshqa orttirma vaznlarning algebraik modeli (ismi foil va ismi maf'ul). Arab tilida hosila (orttirma) boblarning sifatdoshlari, ya'ni harakat bajaruvchisini anglatuvchi ismi foil va harakat obyektini anglatuvchi ismi maf'ul shakllari doimo *mu-* (مـ) prefiksi bilan boshlanadi. Bu turkumga oid so'zlarni C_1, C_2, C_3 (o'zak undoshlari) formulasi orqali modellashtirish o'zlashma so'zning nafaqat etimologiyasini, balki uning yashirin grammatik ma'nosini (faol yoki nofaol holatda ekanligini) ochib berishga xizmat qiladi.

Arab tili grammatikasi qoidalariga ko'ra, bunday vaznlarda so'zning oxiridan oldingi unlisi (ikkinchi va uchinchi o'zak undoshlari orasi) «i» (kasra) bo'lsa, u harakat bajaruvchisi (faol), «a» (fatha) bo'lsa, harakat obyekti (nofaol) hisoblanadi. Bu xususiyatni quyidagi algebraik modellar orqali aniqlash mumkin:

a) ikkinchi bob vaznlari (kuchaytirma yoki orttirma nisbat)da ikkinchi o'zak undoshi (C_2) ikkilantiriladi (tashdidlanadi), ya'ni ismi foil (faol) modeli: $muC_1aC_2C_2iC_3$. Masalan, muallim. Formulaga solamiz: *mu* + *'* (C_1) + *a* + *l*(C_2) + *l*(C_2) + *i* + *m*(C_3). Demak, o'zak undoshlari: *'-l-m* (م ع ل – bilim). Semantikasi: bilim beruvchi, o'rgatuvchi shaxs. Yana bir misol: *musavvir*. Formulaga solamiz: *mu* + *s*(C_1) + *a* + *v*(C_2) + *v*(C_2) + *i* + *r*(C_3). Demak, o'zak undoshlari: *s-v-r* (ص و ر – surat). Semantikasi: suratga soluvchi, yaratuvchi shaxs.

Ismi maf'ul (nofaol) modeli: $muC_1aC_2C_2aC_3$. Misol: *mukammal*. Formulaga solamiz: *mu* + *k*(C_1) + *a* + *m*(C_2) + *m*(C_2) + *a* + *l*(C_3). Demak, o'zak undoshlari: *k-m-l* (ك م ل – kamolga yetish). Semantikasi: kamolotga yetkazilgan, to'liq qilingan narsa.

b) Uchinchi bob vazni (birgalik va mushtaraklik nisbati)da birinchi va ikkinchi o'zak undoshlari orasida cho'ziq unli (o'zbek tilida esa «o» yoki «a») ishtirok etadi. Ismi foil (faol) modeli: $muC_1oC_2iC_3$. Masalan, musofir. Formulaga solamiz: *mu* + *s*(C_1) + *o* + *f*(C_2) + *i* + *r*(C_3). Demak, o'zak undoshlari: *s-f-r* (س ف ر – safar). Semantikasi: safar qiluvchi, yo'lga chiquvchi shaxs.

d) Sakkizinchi bob vazni (o'zlik yoki orttirma nisbat / *ifti'ol*)da prefiksdan so'ng birinchi o'zak undoshi (C_1) keladi va unga grammatik *-ta-* orttirmasi qo'shiladi. Ismi maf'ul (nofaol) modeli: $muC_1taC_2aC_3$. Masalan, muhtaram. Formulaga solamiz: *mu* + *h*(C_1) + *ta* + *r*(C_2) + *a* + *m*(C_3). Demak, o'zak undoshlari: *h-r-m* (م ر ح – hurmat, harom). Semantikasi: hurmat qilingan, e'zozlangan shaxs yoki obyekt.

Ushbu struktural-algebraik modellashtirish orqali eski o'zbek mumtoz matnlaridagi (xususan, bugungi kunda nofaol leksik qatlamga o'tib ketgan va tushunilishi qiyin bo'lgan) qancha-qancha murakkab arabiy o'zlashmalarning mantiqiy ma'nosini to'g'ri idrok qilish va oson esda saqlash imkoni yaratiladi. Kitobxon yoki yosh tadqiqotchi Navoiy, Bobur, Ogahiy asarlarida kam uchraydigan arxaik so'zga duch kelganda, uning qolipini va o'zagini (C_1, C_2, C_3) ajratib olish orqali o'ziga tanish bo'lgan faol so'zlar bilan assotsiativ (ma'noviy) bog'liqlikni topadi. B.M.Grande ta'kidlaganidek, arab tilida so'z o'zagi leksik ma'noning o'zagini (yadrosini) tashisa, vazn (qolip) unga grammatik va qo'shimcha ma'no (yo'nalish, makon, zamon, birgalik) yuklaydi[1]. Demak, o'zakni tanish butun bir semantik uyani[2] lug'atsiz (tezkor idrok uchun ma'nosida, lug'atga ehtiyoj qolmaydi degan fikr mutlaqo noto'g'ri bo'lar edi) ham anglash kalitidir.

Arabiy o'zlashmalarni *C1, C2, C3* formulasi hamda vaznlar (qoliplar) asosida formal-struktural modellashtirish usulini ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayoniga tatbiq etish kognitiv tilshunoslik va matnshunoslikda beqiyos ilmiy qimmatga egadir. Ushbu yondashuvning amaliy ahamiyati quyidagi omillarda namoyon bo'ladi:

Bu usul tadqiqotchi yoki talabaga arab alifbosini bilmagan taqdirda ham, o'zlashma so'zning grammatik va mantiqiy tabiatini tezkor va aniq farqlash imkonini beradi. Xususan, mu- (مـ) prefiksi bilan boshlanuvchi so'zlarni ko'rgan til egasi darhol ikkita muhim lingvistik xulosaga keladi: birinchidan, bu so'z arab tiliga mansub hosilaviy birlik (ismi foil, ismi maf'ul, ismi zamon yoki makon) ekanligini anglaydi; ikkinchidan, arab tili grammatikasining qat'iy qonuniyatiga ko'ra, agar oxirgi bo'g'indagi unli «i» (kasra) bo'lsa, bu shaxs yoki harakat bajaruvchisi (*muallim, mudir, muxbir*), agar «a» (fatha) bo'lsa, bu harakat qaratilgan obyekt yoki tushuncha (*mukammal, muhtaram, murakkab*) ekanligini mantiqan chegaralab oladi[3].

Tarixiy leksikologiyaning eng murakkab muammolaridan biri deetimologizatsiya, ya'ni bir o'zakdan tarqalgan so'zlar o'rtasidagi genetik va ma'noviy

[1] Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. – М.: Восточная литература, 2001. – С. 114-116.

[2] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (араб сўзлари ва улар билан ҳосил бўлган ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 5-8.

[3] Талабов Э. Араб тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 170-175.

aloqaning til egasi tafakkurida uzilishidir. O‘zbek tili egasi tafakkurida, tabiiyki, *muhtaram* va *hurmat*, *muallim* va *ilm*, *musofir* va *safar* so‘zlari ko‘pincha o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan alohida leksemalar sifatida qabul qilinadi. *C1, C2, C3* formulasi esa ularning genetik o‘zakdosh ekanligini matematik aniqlik bilan isbotlab beradi. Masalan, *h-r-m* (ح ر م) o‘zagi orqali *hurmat, muhtaram, harom, mahram, mahrum* kabi butun bir leksik-semantik paradigmani yagona kognitiv freym (uya) sifatida tiklash va tahlil qilish mumkin.

Arab tili fe’l boblarining masdarlari (harakat nomlari) eski o‘zbek tili lug‘at fondining eng faol qatlamini tashkil qiladi[1]. Bu vaznlarni modellashtirish orqali biz yuzlab mavhum otlarning yasalish mantig‘ini tushunamiz. Turkiy tilga eng ko‘p o‘zlashgan va to‘la leksikalizatsiyaga uchragan masdar qoliplari quyidagilardir:

Taf’il (تَفْعِيلٌ) vazni (II bob masdari): $taC_1C_2iC_3$. Bu vazn harakatning kuchayishi yoki boshqa shaxsga qaratilganini (o‘timliligini) bildiradi. Eski o‘zbek tilida bu qolipdagi so‘zlar juda faol bo‘lib, bugungi kunda ham ularning aksariyati iste’moldadir. Misollar: *tabdil* (almashtirish), *takmil* (mukammal qilish), *tasvir* (suratga solish), *tafsil* (mufassal qilish), *tahlil* (hal qilish, yechish).

Tafa”ul (تَفَعُّلٌ) vazni (V bob masdari): $taC_1aC_2C_2uC_3$. Mazkur vazn harakatning o‘zlik ma’nosini, ya’ni ish-harakatning subyektning o‘zida (o‘z-o‘zidan) sodir bo‘lishini ifodalaydi. Misollar: *tabassum* (kulib qo‘yish), *tavallud* (tug‘ilish), *taajjub* (ajablanish), *takabbur* (kibrlanish), *tafakkur* (fikr yuritish).

Mufoala (مُفَاعَلَةٌ) vazni (III bob masdari): $muC_1oC_2aC_3a(t)$. Bu qolipdagi so‘zlar ikki yoki undan ortiq shaxs o‘rtasidagi birgalik va mushtaraklik (mushorakat) ma’nosini bildiradi. Misollar: *mubolag‘a* (bo‘rttirish), *muomala* (o‘zaro munosabat), *musolaha* (kelishish, yarashish), *muhokama* (hukmlashish, tortishish)[2].

Arabiy leksikani vaznlar va algebraik modellar orqali struktural tahlil qilish etimologik va leksik izlanishlarni vizual-grafik (arab yozuvini bilishga) qaramlikdan ozod qiladi. Bu yondashuv o‘zlashma so‘zlarning shakliy-semantik xususiyatlarini sof mantiqiy va lingvo-matematik bosqichda, yuqori aniqlik bilan tasniflash imkonini berib, eski o‘zbek tili manbalarini o‘rganishda mustahkam nazariy baza bo‘lib xizmat qiladi.

III. Grammatik ko‘rsatkichlar tamoyili (arabiy affikslar). Arabiy so‘zlar eski o‘zbek tiliga ko‘pincha o‘zining grammatik shakllari (jins, son va kelishik ko‘rsatkichlari) bilan birga yaxlitligicha o‘zlashgan:

Tanvin (-an, -o) qo‘shimchali so‘zlar: arab tilida holat yoki ravish ma’nosini yasovchi ushbu qo‘shimcha turkiy tillar uchun mutlaqo begonadir. Lug‘atdagi: *avvalan, asosan, ba’zan, daf’atan, masalan, taxminan, xaqiqatan, abado, amono* kabi so‘zlar sof arabizmlardir.

Mavhumlik va ayollik jinsi ko‘rsatkichi (*-at, -iyat*): Mavhum tushunchalarni ifodalovchi so‘z oxiridagi bu element arabiy mansublikni bildiradi: *adolat, balog‘at, jamiyat, xususiyat, mohiyat, qabohat.*

Arabiy siniq ko‘plik (jam’i mukassar) shakllari: arab tilida ko‘plik faqat qo‘shimcha qo‘shish bilan emas, so‘zning ichki tuzilishi o‘zgarishi (o‘zak unlilarining almashishi) bilan ham hosil bo‘ladi. Eski o‘zbek tilida bu so‘zlar ko‘pincha yakkalik ma’nosida o‘zlashgan:

ashyo (shayning ko‘pligi), *axloq* (xulq), *afkor* (fikr), *ash’or* (she’r);

akobir (kabir), *avomir* (amr), *avomim* (omma);

avliyo (valiy), *anbiyo* (nabiy), *hukamo* (hakim), *fuzalo* (fozil).

4. Izofali va tarkibli birikmalar (leksikalizatsiya tamoyili). Arab tilidagi aniqlovchi-aniqlanmish yoki predlog-ism konstruksiyalari eski o‘zbek tiliga yaxlit bir so‘z (leksema) sifatida singib ketgan.

Arabiy artikl (al-, ul-, ud-...) qatnashgan so‘zlar: *zuljalol, zulmat, aynul-yaqin, baytulloh, amirul-mo‘minin, qoziyul-quzot, xayrul-bashar.*

Arabiy predlog (*fi-, ba-, bi-*) qatnashgan so‘zlar: *Fil-jumla, fil-hol, fil-haqiqat, ba’daz, biaynih.* Bularning barchasi arabcha birikmalarning eski o‘zbek tilida bitta modal so‘z yoki ravishga aylangan (leksikalizatsiyalashgan) ko‘rinishlaridir.

Eski o‘zbek tili lug‘at boyligidagi arabiy leksemalarni tahlil qilishning eng samarali va innovatsion usuli bu – o‘zak va qolip (vazn) nazariyasini struktural-algebraik modellashtirish (C_1, C_2, C_3) dir. Bu metod tadqiqotchiga arab alifbosini bilmagan taqdirda ham, o‘zlashmalarning genetik o‘zagini, grammatik ma’nosini (faol/nofaol holatini, zamon va makonini) mantiqiy-matematik aniqlikda topish va deetimologizatsiya (o‘zakdoshlik hissining yo‘qolishi) muammosini bartaraf etish imkonini beradi.

Arab tili fonologiyasiga xos bo‘lgan, ammo turkiy til tabiatida mavjud bo‘lmagan maxrajdosh undoshlarning (س , ث , ص yoki ذ, ز, ض, ظ hamda ح, ه) yagona turkiy fonemaga konvergensiya bo‘lishi (birlashuvi) eski o‘zbek tilida sun’iy shakldoshlikni (omofoniyani) yuzaga keltirgan. Bu esa o‘z navbatida tarixiy manbalarni o‘qishda jiddiy chalkashliklarga sabab bo‘ladi. Ushbu tovushlarni fonetik-grafik va etimologik identifikatsiyalash orqaligina so‘zlarning

[1] Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 57-58.
[2] Талабов Э. Кўрсатилган асар. – Б. 172-176.

asl semantikasini to‘g‘ri chegaralash mumkin.

Arabiy o‘zlashmalarni mexanik lug‘at yodlash yo‘li bilan emas, balki kognitiv-freymli (masalan, *sh-h-d, j-m-’, q-t-l* o‘zaklarining ma’noviy nurlanishi orqali) yondashuv asosida tahlil qilish kitobxon va matnshunosning kasbiy kompetensiyasini eng yuqori pog‘onaga olib chiqadi. Bu tamoyil mumtoz tarixiy va badiiy matnlarimizning asl mohiyatini ochishda va ularni zamonaviy avlodga to‘g‘ri yetkazishda mustahkam metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Rezyume. Ushbu maqolada eski o‘zbek tili lug‘at boyligidagi arabiy o‘zlashmalarni aniqlash va tahlil qilishning asosiy mezonlari ilmiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda arab tilining introflektiv tuzilishi hamda turkiy tillarning agglyutinativ tabiati o‘rtasidagi farqlar asosida arabiy leksemalarni farqlash usullari ko‘rsatib berilgan. Xususan, fonetik-grafik belgilar, morfologik qolip (vazn) tizimi, grammatik ko‘rsatkichlar hamda leksikalizatsiyalashgan birikmalar arabiy o‘zlashmalarni identifikatsiya qilishning muhim omillari sifatida tahlil qilingan. Mazkur yondashuv eski o‘zbek mumtoz matnlaridagi arabiy leksikaning etimologik va semantik xususiyatlarini aniqlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Resume. This article scientifically illuminates the main criteria for identifying and analyzing Arabic loanwords in Old Uzbek vocabulary. The study shows the methods of differentiating Arabic lexemes based on the differences between the introflective structure of the Arabic language and the agglutinative nature of Turkic languages. In particular, phonetic-graphic features, the system of morphological patterns, grammatical indicators, and lexicalized combinations are analyzed as important factors in identifying Arabic borrowings. This method serves as an important methodological basis for determining the etymological and semantic features of Arabic vocabulary in old Uzbek classical texts.

Резюме. В данной статье научно освещены основные критерии выявления и анализа арабских заимствований в лексике староузбекского языка. В исследовании показаны методы дифференциации арабских лексем на основе различий между интрофлективной структурой арабского языка и агглютинативной природой тюркских языков. В частности, фонетико-графические признаки, система морфологических шаблонов, грамматические показатели и лексикализованные сочетания анализируются как важные факторы идентификации арабских заимствований. Этот метод служит важной методологической основой для определения этимологических и семантических особенностей арабской лексики в старых узбекских классических текстах.